

**INNOVATIV LOYIHALAR VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR
O'QUVCHILARIDA O'QISH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING
MAZMUNI**

Dilnoza Iminova

Andijon davlat pedagogika instituti

Makatabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasida

o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinflar o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: innovativ, motivatsiya, rivojlantirish, isloh qilish, ta'lim, o'quvchi, subyekt.

Аннотация: В этой статье в этой статье, в случае инициированных градеров, будет сообщено о намерении развития образовательных мотиваций.

Ключевые слова: невинг, мотивация, развитие, развитие, образование, студия, образование.

Annotation: In this article, in this article, in the event of initiated graders, the intention of developing educational motivations will be reported.

Keywords: Innomivation, motivation, development, development, education, studi, education.

Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o'quvchilarning motivlari sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va hamda O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga - ta'lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta'kidlab o'tiladi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun

o'quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Qayd etilgan muammolarni tadqiq etish qator shart-sharoitlarga bog'liq. Avvalo, ta'limda o'quvchilar maqomini yangilash, ularni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirish ehtiyoji tug'iladi. Binobarin, bu masala muammoning ikkinchi tomoniga, ya'ni o'quvchining ta'lim jarayoni subyektiga aylanish istagi va ehtiyojiga ham bog'liq. Aynan, ana shunday ehtiyojni ularda paydo etish, ya'ni o'quvchini o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub,

shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Innovativ loyihalarni o'quvchilarda o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahamiyatga ega. Unda beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqtni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan ma'lumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning passiv tiglovchi sifatida ishtirok etishi qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tatbiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsional estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faollashtiradi. Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rt dan bir qismini, ko'rgan materialining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib,

ham eshita axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalarida foydalanganda esa bu ko'rsatkich 75% tashkil etadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi.¹ O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxta singdirib borish kerak. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalardan, innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o'rinli ravishda o'z vaqtida foydalanish zarur. O'quvchilar bu innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida innovatsion loyihalar bilan o'qish motivatsiyasini rivojlantirish

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'qishga bo'lgan muhabbatni uyg'otish ularning akademik muvaffaqiyati va shaxsiy o'sishi uchun juda muhimdir. An'anaviy usullar ba'zan o'quvchilar imkoniyatini cheklashi mumkin, ammo innovatsion loyihalar ularning ishtiyoqini kuchaytirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Ikromova (2022) Ta'lim jarayonlarida multimediya vositalarini qo'llash. Science and innovation 1(B17)1268 1273.
2. Abduraxmonova S. Sh. (2021). THE IMPORTANCE OF PRESCHOOL LITERATURE FOR CHILDREN OF PRESCHOOL EDUCATION. European Scholar Journal, 2(4), 447-449.
3. Mirzaev, O. (2022). THE ROLE OF ETHICS AND AESTHETICS IN THE FORMATION OF ENTREPRENEURIAL RELATIONS BETWEEN INDIVIDUALS. Science and innovation, 1(B6), 125-130.
4. Nargiza, Q. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA LOGOPED ISHINING OLIB BORILISHI. PEDAGOGS jurnali, 22(2), 52-54.

¹ O.Ikromova (2022) Ta'lim jarayonlarida multimediya vositalarini qo'llash. Science and innovation 1(B17)1268 1273. Doi10.5281/zenodo.7309531

5. Жўрахўжаев, М. Х. (2022). ИМКОНИАТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР УЙДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 295-298.
6. Мирзаев, О. Х. (2020). Воспитание профессионально-нравственных качеств у будущих молодых фермеров средствами отечественной литературы. Science and Education, 1(2), 508-513.
7. Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. JournalNX, 1, 265.
8. Khalilkhoja, D. M. (2022, March). PROBLEMS AND SOLUTIONS OF HOME INDIVIDUAL EDUCATORS. In Conference Zone (pp. 315-318).
9. Azimova, Z. E., & KHASANOVA, G. THE WAY OF SCIENCE. THE WAY OF SCIENCE Учредители: Издательство Научное обозрение, (6), 58-59.
10. Азимова, З. Э., & Муллаахунова, Н. М. (2023). РАЗВИТИЕ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ 6 КЛАССА УЗБЕКСКИХ ШКОЛ СРЕДСТВАМИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 638-641.
11. Азимова, З. Э. (2018). Олий ўқув муассасаси маънавий-маърифий ишларининг педагогик назария ва амалиётда тутган ўрни. Современное образование (Узбекистан), (2), 26-35.
12. Gulhayo, M. (2023). TECHNOLOGIES FOR DEVELOPMENT OF GENERAL COMPETENCES OF PRESCHOOL TEACHERS. Science and innovation, 2(B4), 632-634.
13. Mominova, G. (2023). МАКТАВГАЧА ТАЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАРБИЯЧИЛАРИНИНГ УМУММАДАНИЙ КОМПOTENСИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. Science and innovation in the education system, 2(2), 122-126.

14. Iminova, D. N. (2021). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ВА МАКТАБ О'RTASIDAGI HAMKORLIKNING AHAMIYATI. Science and Education, 2(1), 301-303.